

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM  
4- BOSQICH 403- GURUH TALABASI

YUSUPOVA ADIBA XASANOVNANING

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta`lim yo`nalishi : “ Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ishi “  
Bakalavr darajasini olish uchun.

Urganch – 2012 yil.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
AL- XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM 4- BOSQICH  
403- GURUH TALABASI YUSUPOVA ADIBA  
XASANOVNANING

“ BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA EKOLOGIK  
TARBIYAGA OID TUSHUNCHALARNI  
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI”  
MAVZUSIDAGI

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta`limiy o`nalishi : “ Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish”  
Bakalavr darajasini olish uchun.

Ilmiy rahbar :

M.Салаева

Taqrizchi:

Urganch tumanidagi 25- son  
umumta`lim  
Maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi  
Xajiyeva M.

Ish ko`rildi va himoya

qilishga ruxsat berildi.  
BTN va M kafedrasining  
2012 yil \_\_\_\_\_ dagi  
№\_\_ bayonnomasi.

Kafedra mudiri: dots . S. Ollaberganova  
Urganch- 2012.

## Kirish

Bugungi kunda hayotimizning ijtimoiy muommalari

Orasida ekologik muommalar yetakchi o'rinni egallamoqda.

Chunki insoniyatning tabiatiga nisbatan har bir o'ylamay qilgan noto'g'ri xatti xarakati ertaga nafaqat o'zi uchun balki kelajak avlod uchun ham qimmatga tushib ayanchli oqibatlariga olib kelmoqda.

Keyingi paytda insonlar o'zlarining moddiy extiyojlarini qondirish uchun tabiatdan tayyor ham ashyo sifatida foydalanib o'z manfaatini ona tabiat xisobidan boyitmoqda

Bu jarayonlar esa keyinchalik o'zini kechirib bolmas darajadagi yechemi yo'q muommalarga olib kelmoqda. Misol uchun birgina orol dengizini ko'radigan bo'lsak bu ulkan suv zaxirasi o'tgan asrimizning 60 yilarigacha Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'llardan biri edi. U o'z bag'rida ko'rkam suv o'tlari, baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchi hayvonat olami hamda o'simliklar dunyosini birlashtirgan ajayib bir akvatoryani tashlik qilardi

Lekin sobiq sovet hukumatining o'sha paytda ko'targan paxta yakkahokimligi siyosati oqibatida plantatsiyalar kopaytirilib, yangidan yangi yerlar o'zlashtirildi. Bu esa Orol dengizining asosiy suv manbai bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryo suvining sug'orishga ishlatilishi natijasida kamayishiga olib keldi

Har yili Orolning qurigan tubidan 15-75 million tonnagacha tuz va chang ifloslanishiga olib kelmoqda. Orol bo'yida tabiiy va antropogen cho'llashishning sur'ati ortib bormoqda. Ichimlik suvida tuzlar miqdori 2-4 gr litrni tashkil etadi.

Bu malumotlarni davom ettirar ekanmiz, shu o'rinda muhtaram Yurtboshimizning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. 'Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovishtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir'.

Bu muammoning oldini olish uchun Yurtboshimiz tomonidan ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2010- yilning 12- mart kuni Toshkentda Prezidentimizning tashabbusi bilan 'Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga tasiri hamda oqibatlarini yengillashtirish xalqaro xamkorlik chora-tadbirlari mavzuida xalqaro konfrensiya bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 20 dan ortiq davlatlaridan vakillar, ekologiya, iqlim o'zgarishlari hamda suv resurslarini boshqarish sohasi bo'yicha taniqli olimlar va mutahassislar ishtirok etdi. Unda so'zga chiqqan chet ellik mehmonlar alohida to'xtalib o'tgan muammolar bu – Orol bo'yida ekologik vaziyatning yomonlashishi mintaqada ekotizim muvozanatining buzilishiga olib kelishi, suv resurslarining taqchilligining kuchayishi, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish aholini turmush sharoiti va sog'liqqa, bioxilma-xillikka salbiy ta'siri va bu muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish chora-tadbirlari xususida bo'ldi. Konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhafaza qilish davlat qo'mitasi raisi Bo'riy Alixanov, sog'liqni saqlash vaziri Feruz Nazarov va boshqalar so'zga chiqishdi, hamda bu muammoning techimi sifatida quyidagi olib borilayotgan ishlarni aytib o'tishdi:

Orolning qurigan qismida qumlarni qotirish, qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli o'simliklar ekish hisobidan bu yerlarni o'zlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu esa avval foydalanilmagan yerlardan yaylov sifatida foydalanish, provardida chorva chilikni rivojlantirish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishning obykti :

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish mazmuni.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish jarayonini tadqiq ettish.

Tadqiqotning farazi – Agar, ekologik tarbiya shaxs barkamolligining asosiy tarkibiy qismi ekanligi, ekologik ta'lim tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish shakl, metod va vositalari, boshlang'ich sinfda dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar jarayonida ekologik tarbiya berish mazmuni atroflicha yoritilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning pedagogik asoslari ochib beriladi.

Keltirib o'tilgan maqsad va ilmiy farazimizdan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishining quyidagi vazifalarini belgilab olamiz.

1. Ekologik tarbiya shaxs barkamolligining asosiy tarkibiy qismi ekanligini batafsil yoritish.

2. Ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish mazmunini yoritish.
3. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish shakl, metod va vositalarni tahlil etish.
4. Boshlang'ich sinflarda dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar jarayonida ekologik tarbiya mazmunini yoritish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va nazariy yangiligi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishidan pedagogika mutaxassisligi bo'yicha oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilar va ota-onalar foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## I. BOB

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirish.

### 1.1

Ekologik tarbiya shaxs barkamolligining asosiy tarkibiy qismi.

“Ekologiya” - yunoncha soʻz boʻlib, tirik mavjudodlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan oʻzaro munosabatlari hamda shu asosida yuzaga keladigan qonuniyatlarni oʻrganadigan fanidir.

“Ekologiya” atamasi 1866-yilda nemis zoolog olimi E. Gekkel tomonidan fanga kiritilgan.

Yaqin vaqtlargacha bu atama faqat mutaxassislargagina maʼlum edi. Endilikda atrof muhitga, tabiat boyliklariga etiborsiz boʻlish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi aniq boʻlib qoldi. Inson bilan tabiat oʻrtasidagi munosabatlar muammolarini yechish zarurati tugʻildi. Shu barobarida ekologik vaziyatni sogʻlomlashtirish asosiy ishlardan biri boʻlib qoldi. Oʻquvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda boʻlishni oʻrgatish pedagogika nazariyasi va maktablar amalayotining eng dolzarb mavzusiga aylandi.

Oʻzbekiston konstitutsiyasining 18- moddasida yer va yer osti boyliklarini suv manbaalarini oʻsimlik va hayvonot dunyosini qoʻriqlash bu boyliklardan ilmiy asosda oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz koʻpaytirib borishni taʼminlash, insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun chora va tadbirlar koʻrish zarurligi taʼkidlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qabul qilgan “Tabiatni muhafaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni “Sogʻlom avlod uchun” ordenini taʼsis etilishi, shu nomda davlat dasturi, “Ekologik taʼlim-tarbiya konsepsiyasi”ning ishlab chiqilishi, “Ekosan”

jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir.

Ayniqsa, ta'lim muassasalarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi, bu asosda litsey maktablarning shakillanishi yosh avlodga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoidil kirishilganini ko'rsatadi. Maktabni bitirib mustaqil hayotga qadam qo'ygan har bir yosh, qanday ixtisos egasi bo'lishidan qat'iy nazar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganligi o'quvchi ongiga birinchi navbatda singdiriladi. Haqiqatdan ham tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p darajada foydalanish yangi yerlarni o'zlashtirish oqibatida ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof muhit ifloslandi. Ayniqsa, paxta yakkahokimligi, qishloq xo'jalik ishlarining noto'g'ri rejalashtirilishi, kimyoviy o'g'itlarni meyoridan ortiq ishlatilishi tabiat kushandalarini ko'payishiga sabab bo'ldi. Bu holat hayvonot olamiga ham, o'simliklar dunyosiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Keyingi 30 yil ichida tabiiy boyliklardan shunchalik ko'p foydalanilganki bu butun insosiyat tarixi davomida foydalanilgan tabiiy boyliklarga tengdir. Demak, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa



aholini yer, suv, energetika, oziq ovqat bilan ta`minlash haqidagi muammolar butun dunyo ( global) muammolarga aylanib bormoqda. Yer bag`ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xom ashyo , qurilish materiallari , yoqilg`ining qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo`lmoqda. Tabiyatga zarar keltiradigan ko`pgina zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo`lib borayotir. Markaziy Osiyo hududida yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko`paymoqda. Yer kurrasida insonning farovon yashashi endi ekologik muammolarni yechishga bog`liq bo`lib qoldi.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo`nalishlari mavjud. Bu yo`nalishlar ichid pedagogik yo`nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi. Pedagogik yo`nalishda ekologik ta`lim va tarbiya berish ko`zda tutiladi.

Ekologik ta`lim deganda, o`quvchilarga berilishi lozim bo`lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta`lim-tarbiya umumiy ta`lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo`lib, maktabda barcha fanlarni o`qitishda amalga oshirilishi ko`zda tutiladi. Ekologik ta`lim-tarbiyadan bosh maqsad

ham yosh avlod atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik taarbiyalash jarayonida yoshlar tabiat boylik larni tejab-tergashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatila boriladi. Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida " Men bolalar "Alifbe"ni ochib, birinchi so'zini hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim" deb ta'kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ekologik tarbiyada o'quvchilarni o'z maktabini, yashaydigan muhiti-shahar va qishloq ko'chalarini ko'kalamzorlashtirish, mevala va manzarali daraxt ko'chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Ekologik savoxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qarganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish atrofni ifloslantirmaslik uchun ahlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash, hojatxonalarni ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kavlash, yong'in chiqmasligi

chorasini ko'rish, turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtlarni emas, balki qurib qolganlardan foydalanish, nihollarni sindirib, payhon qilmaslik, qushlarni uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga "Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi", "Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan", "Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi, chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor" deb pand-u nasihatlar qilganlar. Ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimi bolalar bog'chalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi, bu o'rinda hayotiy misollar orqali hozirgi paytda oilalarda ekologik savodxonlikning pastligi uqtiriladi. Masalan, hozirgi ko'plab odamlar mollarini ekinzorlarda, bog'larda, hatto mevali va manzarali daraxtlarga bog'lab boqadigan bo'lib qolishmoqda. Axir o'tmishda xalqimiz qaramog'idagi hayvonlariga maxsus podachi saqlagan-ku. Yoki moli bor kishilar navbat bilan poda boqqan-ku. Buning ustiga hozirgidek hayvonlarni duch kelgan yerda emas, alohida ajratib qo'yilgan yaylovlarda o'tlatgan. Yoki oilaviy dam olishga chiqilganda o't-o'lanlar payhon qilinmagan, qir-adirlarda shisha siniqlari, ovqat qoldiqlari tashlab ketilmagan. Daraxtlarga, o'simliklar olamiga, hayvonlarga zarar keltirilmagan.

O'lkamizning tabiiy o'simliklar dunyosi, ularning foydasi, bu boyliklarni muhofaza qilish kerakligi haqidagi maslahaatlar bilan yoshlarni maktab partasidan keng tanishtirib borish o'z samarasini beradi. Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar maktablarda

o'qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o'qitishda umumlashtiriladi. Shu bilan birga fakultativ mashg'ulotlarda, darsdan tashqari to'garak yig'ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o'zlarining kundalik faoliyatlari davomida ekologik muammolarni o'rgana boradilar.

Ekologik tarbiya berishni tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- Tabiat va uning ahamiyatini aniqlash;
- Tabiatga munosabatni rivojlantirishda maktab va oilani hamkorligi;
- O'z rayonini, shahrini qishloq va maktabi hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- Atrof-muhit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- Tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarning namunalari;
- Oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- Tabiatga ongli munosabat jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;

- Yoshlarning ekologik tarbiyalashgda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.

O'quvchilarda ekologiya xususidagi tasavvurlarni kengaytirishda tarix fanining imkoniyati katta. Bundan besh yuz yil ming yil avval o'lkamiz tabiati qanday bo'lgan, o'simliklar va hayvonot olami-chi kabi savollarga tarix fanidan javob topish mumkin. Maktabda o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilishga doir bilim va tarbiyani geografiya darslarida har bir mavzuga bo'glab berib borish mumkin.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish darslarida joy nomlaridan foydalanish ona tili bo'yicha mashg'ulotlarni yanada qiziqarli qiladi.

Ona tili darslaridagi ko'plab mashqlar o'quvchilarga tabiatga mehr uyg'otishda qo'l keladi. Mashqlardagi suv va havo, o'simlik va hayvonot olamiga taaluqli fikrlar ifodalangan matnlarni tahlil qilish ham tabiatga mehr uyg'otishi mumkin.

Adabiyot fani ham ekologiya bilan chambarchas bog'langan. Bunda har bir asarni o'qib tahlil qilish vaqtida va o'quvchilarga tushuntirayotganda faqat bezak nuqtai nazaridan emas, balki axloqiy ekologiya, ya'ni tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mana shu usul bilan adabiyot darslarida ham o'quvchilar ongiga ekologik tarbiyani singdira boriladi. Shuningdek, 5-9- sinflarda "Tabiatni asrash – Vatanni asrash", "Tabiatni e'zozlaylik" kabi mavzularda turli bahs va she'rxonlik kechalari uyushtirish orqali ham ekologik tarbiyani amalga oshirish mumkin. Adabiyot fanida o'qitilayotgan xalq og'zaki ijodi misolida esa o'quvchilar

ajdodlarmizning ekologik xatolari nimadan iboratligi hamda bu sohada ularning qanday ibratli ishlariborligini o'rganadilar. O'quvchilarga aytiladigan ertaklarda hayvonlar va o'simliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi o'rni ochib beriladi. O'qilgan badiiy asarlar misolida o'tkazilgan suhbatlarda tabiatga yaxshi munosabatda bo'lish va toshbag'irlik bilan qarash dalillari muhokama qilinadi.

Matematika fanida beriladigan ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tabiatdagi saliy yoki ijobiy o'zgarishlar inson sog'ligiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishadi. Maslan, respublikada 1200ga yaqin sanoat korxonasi borligi, ular havoga bir yarim ming tonnaga yaqin zaharli moddalarni chiqarayotganligi, bunday holat 10 yil, 20 yildan keyin ham shu maromda ketaversa nimalarga olib kelishi mumkinligi kabi misollar vositasida ekologik falokat oqibatlarini yoshlarga tushuntiriladi.

Ekologik yo'nalishdagi to'garaklarda bolalar tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go'zalliklardan zavqlanishga, atrof- muhitni sevisishga o'rgatila boriladi. To'garak mashg'ulotlarida o'tkaziladigan " Tabiatni e'zozlaylik", "Tabiat va inson", "Ekologiya va inson ", "Orol madad so'raydi", "Qushlar bizning do'stimiz" kabi mavzular o'quvchilarda tabiatga qiziqishni yanada orttiradi. Bag'ritosh, shavqatsiz, tabiatga mensimaslik kayfiyati bilan qaraydigan ayrim bolalarni hushyorlikka chorlaydi. To'garak mashg'ulotlarida yana hashorptlarni tutib ularga ozor beradigan, chumolilar ini, qushlar uyasini buzadigan, o'simliklarni bosib, yulib oladigan o'quvchilarning xatti-harakatini muhokama qilish zarurligi uqtiriladi. O'quvchilar to'garak ishlarida faqat mavzularni o'rganib yoki turli

kechalar o'tkazibgina qolmay, bevosita amaliy ishlar ham qiladilar. Ya'ni gul o'stiradilar, qushlarni, quyonlarni boqib parvarish qiladilar. Demak, o'quvchilarni tabiatni idrok qilishda tabiat hodisalarini kuzatishga o'rgatishda ekologik to'garaklarni ta'siri katta.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishida xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa – yer, suv, tuproq, havo muqaddas sanalgan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida “suv sayli” o'tkazgan. Ota-bobolarimiz “Suv tabiat in'omi, hayot manbai” deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Xalqimizda tabiatni muhofaza qilishga oid juda ko'p odatlar bor. Lekin keyingi paytlarda bunday odatlarga kamroq e'tibor beriladigan bo'lib qolgan. Masalan, suvga bo'lgan hurmat. Ilgarilari kachik ariqcha yuzlab xonadonlardan oqib o'tsa ham uni hech kim iflos qilmagan. Hozir esa ko'p joylardagi ariqlarga nazar solsangiz, ularning chiqindilar bilan to'lganiga guvoh bo'lasiz.

Insoniyat jamiyatni suvsiz tasavvur qilish qiyin. Yangi tug'ilgan chaqaloq tanasining 70% dan ortig'ini, katta yoshdagi kishi organizmining 65%ini suv tashkil etadi. 70 kilogramm og'irlikdagi o'rta yoshdagi kishining 45 kilogrammi suvdan iborat. Suv inson tanasining hamma a'zosida uchraydi, hatto suyakning 20%ini ham suv tashkil etadi.

Inson o'z tanasidagi namlikning har vaqt bir xil bo'lishiga harakat qiladi, chunki kishi tanasida 12% namlik yo'qolsa, odam

halok bo'ladi. Inson organizmi ovqatsiz 1 oydan ortiq chiday oladi, lekin suvsiz bir necha kumgina yashashi mumkin.

Suv organizmda modda almashinishi jarayonida qatnashadi. Suvga bo'lgan talab sutkasiga kishi boshiga 2,5 – 3 litrni tashkil etadi. Bu miqdor iqlimga, mehnatning og'ir yengilligiga qarab ortib yoki kamayib boradi. Suvning faqat fiziologik meyoriy emas, balki uning gigienik meyori mavjud. Uy-joylarni toza tutish, yuvinish, kir yuvish, idish tavoqlarni yuvish va tozalash uchun anchagina miqdorda suv kerak bo'ladi. Suvning shu maqsad uchun isrof qilinmay saqlanishi insonda ekologik madaniyatning yuqori ekanligidan darak beradi.

Suv havzalari ifloslovchi manbaalar juda ko'p va xilma-xil: suvda har xil zaxarli moddalar to'planib suvning fizik xossalari (tiniqligi, rangi, xidi va mazasi) va kimyoviy tarkibi o'zgaradi, suv tarkibida kislorod kamayadi, bakteriyalarni turlari miqdori o'zgaradi va yuqumli kasalliklar tarqatuvchi bakteriyalar paydo bo'ladi.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotida toza suvga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda, chunki insonning xo'jalik faoliyatini toza suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'pchilik kishilar suvni hech qachon tamom bo'lmaydigan boylik deb o'ylaydi. Chunki osmondan yomg'ir yog'adi, daryo tinimsiz oqadi, qor va muzliklar baland tog'larni va yer qutublarini qoplagan, hech nimadan xavotir olmasa ham bo'ladi. Ammo, chuchuk suvlar Yer sharida bir tekisda tarqalmagan. Dunyo aholisining 70% dan ortig'i yashaydigan Osiyo va Yevropa dunyodagi daryo suvlari zahirasining 39% joylashgan. Suv va yer milliy boyligimiz.



Ma'lumki , yer yuzining to'rtidan uch qismi suv bilan qoplangan. Ammo faqat 500 ming km<sup>3</sup> ga yaqin chuchuk suv bor, xolos. Demak, ichimlik suvidan ham tejab-tergab foydalanish kerak.

Donishmandlik durdonasi hisoblangan hadislar ta'lim-tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish haqidagi hadislarda ham diqqatga sazovor fikr aytilgan. Masalan, " Soyasida halq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni ttangri do'zaxga mahkum etur", deb insonlarni qo'rqitish orqali tabiyatga zarar keltirmaslik targ'ib qilinsa, " Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdir . Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar " deyish bilan halol mehnat samarasini ko'rish zarurligini uqtiriladi. " Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tqazsa , so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yiziladi" deyilgan hadis misolida bag'rikenglik jonzotlarni asrash zarurligi g'oyasi ulug'lanadi. " Ermak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda bexosdan qiyomatqoyim bo'lishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo'yaving", " Kim suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa, unga shahidlik ajri beriladi", kabi hadislarda ekologoya va tabiyat muhofazasiga oid tushunchalar bordir.

Demak, ota- bobolarimiz azal- azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishgan . Yurtni obod etishgan, ko'chalarni hovlilarni sarishta saqlashgan. Xalqimizning tabiatga munosabati urug' qardosh, qovun sayli, syv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, gul bayrami navro'z bayrami, hirmon to'yi kabi batramlarda ham

ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning hayot tarziga aylanib ketgan.

Respublikamiz mustaqilligiga erishgandan so'ng bu diyorni obod etish, uning atrof-muhitini toza saqlash, har bir fuqaroning insoniy burchiga aylandi. Obodonchilik va orastlik pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomilalik har bir inson uchun, xususan, pedagoglar va o'quvchilar uchun ham ekologik ma'naviy mezondir. O'quvchilar ekologik tarbiya ishlari jarayonida quyidagilarni bilish zarur:

- tabiat haqida, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ularni orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergan foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifoslanishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash, o'quvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga uning go'zalligini asrab- avaylashga olib keladi. Tabiatga muhabbatni va unga ehtiyotkorlik hissini tarbiyalash, shaxsda axloqiy belgilarni rivojlantirishga yordan beradi.

## 1.2

Ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarda ham atrof-muhitdagi tabiiy hamda antropogen obyektlar hamda hodisalarga munosabat va ularga mas'uliyat hissi kurtaklari mavjudki, binobarin ularni rivojlantirish talab etiladi.

Mazkur yoshdagi o'quvchilarning fikrlashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg'urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi. Shu sababli o'quvchilarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hatt- harakatiga qiziqishini ilk o'quvchilik davridan uyg'otish va ularga nisbatan hissi-ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi.

O'quvchi o'zini o'rab turgan artof-muhit va tabiatning muayyan xossalari: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib ya'ni mazkur xossalar o'quvchilarning besg turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'grisida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishdolari, qiyofalari, tasvirlari manzaralari vujudga keladi.

Boslang'ich sinf o'quvchilarining  
atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni

- |   |               |
|---|---------------|
| 1- bosqich                                | Atrof-muhitni |
| obyektlar va hodisalarni sezishi          |               |
| 2- bosqich                                | Atrof-muhitni |
| obyektlar va hodisalarni idrook etish     |               |
| 3- bosqich                                | Atrof-muhitni |
| obyektlar va hodisalarni tasavvur qilish. |               |

Falsafiy psixologik nuqtai nazardan o'quvchi bilimining manbai sezgidir. Chunki o'quvchi atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'z sezgilaridan oladi. O'quvchining atrof-muhit haqidagi boshqa birmuncha murakkab bilimlari manashu dastlabki boslang'ich bilimlari asosida vujudga keladi. Demak, o'quvchini tabiiy va antropagen muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham atrof-

muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishdir. Atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarni idrok etish sezishga nisbatan birmunch murakkab jarayon. Idrokda obyektlar yoki hodisalar butun hollda aks etadi, ya'ni ularning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi.

Atrof muhitdagi obyektlar va hodisalarni hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir. U atrof muhitdagi obyektlar va hodisalarning xuddi shu onda idrok qilinmaydigan biroq miyada qolgan ko'z oldiga keltirilgan manzarasi, qiyofa tasvirlarning tiklanishimanzarali xotiradir.

Tasavvur bilimlarni saqlash va mustahkamlashga hizmat qiladi, ayni paytda obyekt va hodisalarni xususiyatlarini bilib olishda muhim o`rin tutadi. Tasavvurdagi umumlashtirish xususiyati boshlang`ich ekologik tushunchalarning tashkil topishiga katta yordam beradi.

Xususiy tasavvurlar atrof muhitdagi aniq obyektlar tasviri manzaralaridir .

Ularaniq obyektlarni masalan, aynan daraxtni, yo`lni , ko`prikni, soyni, ariqni , ko`chain , mahallani, aks ettiradi. Shuningdek ayni paytda ko`cha yoki mahalla hududining tabiati va kishilar hayotini ham aks ettiradi. Natijada o`quvchi ongida muayyan hududning hajmdor yoki hajmsiz rangli yoki rangsiz aniq yoki noaniq shakildagi hosil bo`ladi va bu jarayonvaqt vaqt va tajribaga bog`liq holda tiniqlashib qoladi. Demak boshlang`ich sinf o`quvchilarini atrof muhit bilan tanishtirish jarayonida ularning hissiy bilishiga tayanib ish ko`radilar va shu asosida atrofdagi muhit hamda uning har bir tarkibiy

qismining tabiat va Insin hayotida tutgan o`rni haqida aniq bog`lanishli misollar keltirilib tegishli munosabat va madaniyat tarkib toptiriladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari shaxsida ekologik madaniyatni shakillantirish “ munosabat “ “ masullik “ ni tarbiyalashda namoyon bo`ladi. Bunday munosabat insoniyatning , hususan ayrim odamlarning bilib, bilmay , uzoqni o`ylamay tabiatga ko`rsatgan salbiy ta`siri oqibatini anglash va bunday ta`sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakillanadi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin.

Shaxsning ekologik madaniyati

Tarbiya va ijtimoiy ekologik bilimlar.

Ekologik ong

Tabiat muhofazasi bo`yicha amaliy ko`nikmalar.

Axloqiy ekologik iroda.

Qat`iylik.

Dadillik

Mustaqillik

Jiddiylik

O`zini tuta bilish.

Ekologik mas'uliyat – atrof- muhitga mas'uliyatli munosabat.

Tabiat va odamning uyg'un birligini tushuntirish.

Tabiatni moddiy va ma'naviy qadryatlar sifatida aniqlash.

O'zi va o'zgalarning atrof- muhitdagi hatti harakatini baholash va nazorat qilish.

Kundalik va kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri ekologik qarorlar qabul qilish.

Ekologik madaniyat bir birini taqozo etadigan bir- biridan o'sib chiqadigan uch tushunchani qamrab oladi: ekologik bilimlar , ekologik ong va tabiat muhofazasi bo'yicha ko'nikmalar. Ushbu ko'nikmalarning kerakli vaqtda ishga tushishi ahloqiy- ekologik irodaga bog'liq. Irodasi bo'sh odamnojo'ya hatti harakatlarni to'xtatib qolishga moyilham qodirham bo'lmaydi. Shu bois ekologik hissini boshlang'ich sinfdan tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek , ushbu bobda o'quvchilarning atrof- muhitga masuliyatli munosabati qanchalik rivojlanganini aniqlash maqsadida ularning atrof- muhitga , tabiat qo'ynida tirik tabiat burchagi yonida o'zini qanday tutishlari kuzatiladi, ekologik mazmundagi savollar berib javoblar olindi.

Oquvchining tabiat qo'ynidagi hulq- atvori va faoliyatlarini kuzatish shuni ko'rsatadiki ularning ayrimlari eng chiroyli va noyob gulni uzib olishga, hech bir zaruratsiz shox- shabbalarni sindirishga , qushlar va boshqa jonivorladga ozor

yetkazishga , gulhan yoqish uchun nihollarni chopib qirqishga va hakozolarga intiladilar.

## II-BOB

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishni mazmuni.

### 2.1

Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning shakl metod va vositalari.

Bashariyat orzusi bo`lmish badkamol avlodni tarbiyalash koinot atalmish ulkan ekologik tizimning hatosiz ishlashga ma`lum bir ma`noda bog`liqdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ekologiya masalasiga alohida to`xtalib, “ Ekologiya har bir fuqaroning va oilaning maxsus e`tibor zo`nasiga aylanishi zarur “ , deb takidlashi ham bejiz emas.

Halqimizning “ sog` tanda- sog`lom aql”, degan naqli asrlar davomida avloddan- avlodga etib kelmoqda.

Chunki atrof muhit tozaligi , tabiat sofliqi, go`zalligi, boyligi insonning go`dakligidayoq sog`lom, jismonan baquvvat , aqlan yetuk bo`lib o`sishida muhim ahamiyatga ega.



Tabiatning rang- barangligi va zararli tomonlarini tushuntirib borish bilan birga uni asrab- avaylash , rivojlantirish, boyitish lozimligini , buning uchun har birimiz masul ekanligimizni va mehnat qilishimiz lozimligini takidlaymiz.

Ekologik tarbiya asosan , tabiat haqidagi tasavvurlarni shakillantirish orqali tabiat bilan tanishtirish mehnat mashg`ulotlarida beri boriladi.

“ Uchinchi ming yillikning bolasi “ dasturida berilgan mavzularga qo`shimcha qilib go`zal Vatanimizga hos jonli va jonsiz tabiat o`simliklar va hayvonot dunyosi haqida tasavvur shakillantirib boriladi.

Birinchi sinfda o`quvchilarni tabiat bilan tanishtirish jonli mavjudodlarga qiziqtirish hamda ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni , ularni parvarish qilishda kattalarga yordam berishni o`rgatishdan iborat.

O`quvchilarni o`simlik va hayvonot dunyosidagi ayrim hodisalar bilan tanishtiramiz. Maktab uchastkasida o`quvchilarga tabiat hodisalarini ( yomg`ir yoki qor yog`ishini , quyosh nur sochayotganini , shamol esayotganini), ko`katlar , daraxtlar va ularning farqlovchi belgilarini ( ko`kat- past, ko`k, daraxt baland, uning barglari ko`p), ko`rish va aytishni o`rgatamiz.

Maydonchaga uchib keluvchi qushlar bilan, ularning xatti - xarakterlarining ayrim hususiyatlari bilan ( uchadi daraxtga qo`nadi, cho`qiydi tovush chiqaradi) tanishtiramiz.

Tabiat burchagida o`quvchilarga hona o`simliklari , qafasdagi qushlarni ko`rsatib ularning nomini aytishni o`simliklarga suv quyish , qushchalarga ozuqa va suv berish, ularni parvarish qilishni uqtiramiz.

Mavzuning dolzarbligi keyingi yarim asr davomida jahonda ro`y bergan ekologik xavfli jarayonlar O`zbekistonni ham chetlab o`tmadi.

Xususan , Orol va Orolbo`yi hududlarda ekologik tanazzulga yuz tutdi, yerlarning cheklanganligi , sho`rlanganligi va sifat tarkibi pastligi bilan bog`liq xavflar oshdi, shamol va suv ta`sirida yemrilish tuproq unumdorligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi, atmosfera havosi va chuchuk suv zahiralari taqchilligi sharoitida uning ifloslanishi ro`y berdi. Bu jarayonda sanat va qishloq xo`jaligi , ishlab chiqarishi maishiy turmush, trasport vositalari , mashina va mahanizmlar alihida o`ri tutib, inson bilan tabiat o`rtasidagi munosabatda ehtiyotsizlikka yo`l qo`yib o`zaro tabiiy aliqadorlik va muvozanatga putur yetdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ijtimoiy ekologiya muammolarini dialektik tahlil qilar ekan, tabiat va inson o`zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo`lishi bu qonuniyatlarni buzish o`nglab bo`lmas ekologik falokatlarga olib kelishini ta`kidlab, ularni milliy xavfsizlikka qarshi yashirin taxdidlardan biri sifatida baholaydi. “Buni sezmaslik, qo`l qovushtirib o`tirish – o`z-o`zini o`limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko`plab ushbu muammoga beparvolik bilan munosabatda

bo'lmoqdalar", deb fuqarolarning ona tabiat, atrof-muhit uchun ekologik ma'sulligi haqida alohida to'xtaladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham "fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", deb yozib qo'yilgan.

Ayni paytda, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ko'p omilli jarayon ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Uni faqat siyosat, iqtisod yoki ma'naviyatga bog'lab qo'yish yaramaydi. Bu borada atrof-muhitga nisbatan sodir etilayotgan ekologik noo'rin xatti-harakatlar yoki jinoyatlar fuqarolarning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik ongi, madaniyat va mas'uliyati nisbatan pastligi, xususan hayotiy ekologik bilim va ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmaganligi oqibatida kelib chiqadi.

Ekologik noo'rin xatti-harakatlar yoki jinoyatlarning salbiy oqibatlarining birdaniga aniqlash qiyin va murakkab jarayon. Ular atrof-muhitning, ya'ni atmosfera havosi, suv va tuproqning sekin-asta, deyarli sezilmasdan ifloslanishiga, bu esa ulardagi tabiiy muvosanatning buzilishiga, oxir-oqibat, o'simliklar va hayvonoot dunyosi noyob turlarining yo'qolishiga odamlarning esa turli xil kasalliklarga chalinib, o'rtacha umrning pasayishiga olib keladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek " Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi.

Jahonning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo'lmoqda. Endilikda Respublikamizda chiqindisiz

va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish atrof-muhitni muxofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy huquqiy choralar ko'rish, ekologik marifat orqali aholining ekologik rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiatga atrof-muhitga ko'rsatilayotgan salbiy antropogen omillarni kamaytirishga, insonning atrof-muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatni shakllantirishga olib kelmoqda.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturda ham inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro uyg'unlashuvi"ga "ta'limoluvchilarning ... ekologik, sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish"ga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga qo'yilgan umumiy talablarida ham ularning ekologik mas'uliyatini his qilishi tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi lozimligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Demak, Vatanimiz tabiatiga, atrof-muhitga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini maktab yoshidagi har bir o'quvchi shaxsida tarbiyalashimiz lozim.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchi o'z atrofidagi tabiiy-ijtimoiy muhit ta'sirida va mahallada o'rnatilgan axloqiy ekologik tartiblar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go'zal tabiati uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati orqali belgilanadi. Shu bios pedagog olimlar va amaliyotchilar ekologik ta'lim va tarbiyani ilk bolalik yoshidan boshlash maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

Bu qarashda tabiatga xunuk oqibatlarni oldindan o'ylamay bilmasdan ziyon-zahmat yetkazish bilan, bial turib yo'l qo'yish yoki ongli ravishda qo'l urish o'rtasida farq yo'qday tuyuladi. Lekin tabiatga bilmasdan zarar keltirgan kishi o'z xatti-harakati bilan xato ish qilib qo'yganligini payqagach, zimmasidagi mas'uliyatni his etib, o'zini to'g'ri yo'lga soladi. Tabiatga ziyon yetkazayotganini bila turib, o'z xatti-harakatini to'xtatmasdan ongli ravishda davom ettiradigan odamni esa bu ishdan qaytarish ancha mushkul. Noto'g'ri xatti-harakatlarning guvohi bo'lib turganlar esa bunga ko'p vaqt to'sqinlik qilish payida bo'lsalarda, qat'iysizlik namoyon qilib, o'zlarini chetga oladilar. atrof-muhitga bilmasdan zara yetkazgan odam uchun ekologik ta'lim zarur bo'lsa, o'zi keltirayotgan zararni bilsa ham, yo'lidan qaytmaydigan mas'uliyatsiz odamga ekologik ta'limgina emas, balki tarbiya ham lozim. Chuunki, birinchisi onnga bog'liq bo'lsa, ikkinchisi ahloqqa borib taqaladi.

Bularning barchasi shaxs kamolotining dastlabki bosqichlarida o'quvchilarda shaxsiy munosabatlarni hosil qilish uchun ularni atrof-muhit qadriyatlarga o'rgatish zarurligidan dalolat beradi. Uning eng muhim vositalaridan biri esa o'quvchilarni atrof-muhit bilan tanishtirish hisoblanadi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ekologik marifatning maqsadi o'quvchilarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ijtimoiy ekologik axloq qoidalariga mos keluvchi va uning holati uchun fuqarolik mas'ulligini ta'minlovchi dastlabki

ekologik bilimlar, qarash va e'tiqodlar asoslarini majmua sifatida tarkib toptirishdan iboratdir.

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik ma'rifatni samarali amalga oshirish, o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish pedagogika fani va amaliyotidagi eng dolzarb muammolarga aylangan. Zero, tabiatga muhabbat, unga mas'ullik tuyg'usi – juda keng qamrovli va murakkab psixologik-pedagogik tushunchalardir. Ular yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o'z ichiga oladigan yaxlit bir burunlikni tashkil etadi. Bunday tuyg'ini tashkil etish ishini ilk bolalik yoshidan boshlash kerakligi uchun mazkur muamma o'ta dolzarb sanaladi.

## 2.2

Boshlang'ich sinfda dars va darsdan tashqari ta'lim - tarbiyaviy ishlar jarayonida ekologik tarbiya mazmuni.

Jonivor va o'simliklar haqidagi ilk tasavvurlarni berish.

O'simliklar dunyosi : O'quvchilarni sabzi, olma, limon, apelsin, kabi mevalar bilan tanishtirishb , ularni tashqi ko'rinishi , ta'midan bilib olishga o'rgatish. Daraxtlarni , o't gullarni farqlash, nomini aytishni shakllantirish.

Hayvonot dunyosi: bevosita kuzatishlar , rasmlar, o'yinchoqlar, orqali o'quvchilarni jonivorlar bilan tanishtirish.

Jonivorlar tana qismlari : kalla , dum, oyoq, boshida, quloq , shox, ko`z , og`iz va boshqalarni nomlarini ayta bilishni o`rgatish.

Yil oxirida birinchi sinf o`quvchilarini o`z o`lkasining sabzavot va mevalarning nomini bilishlari va farqlay olishlari , maktabmaydonchasidagi ikki, uchta daraxtni bargidan ajrata olishlari kerak.

### BIRINCHI SINIF

Yetti yoshga qadam qo`ygan o`quvchilarda tevarak-atrofdagi yaqqol ko`zga tashlanadigan va ko`p uchraydigan tabiat hodisalarining ayrimlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. O`simlik jonivorlarga qiziqish hamda ehtiyotkorona munosabatni, ularni parvarish qilish ishtiyoqini, ularda zavq olishni tarbiyalash. Jonsiz tabiat. Kun va tunni, ob-havoning asosiy holatini farqlash va aytishni o`rgatish. Suv, qor,muz, qum va loyning belgilarini farqlash va nomini aytishni o`rgatish.

Jonli tabiat. Sinf uchastkasida harakatli belgilari yaqqol ifodalangan ikki, uch daraxt turini farqlash va nomini aytishni; ikki, uch xil gullaydigan yoki begona o`tsimon o`simliklarni, ularning gulining rangi va barglarini tanish, nomini aytishni o`simliklarning o`sishi uchun asosan, suv zarur ekanligini o`quvchilarga o`rgatish.

Ikki xil qushning katta kichikligini bolalarga o`rgatish va o`ziga xos rangi, chiqaradigan tovushi, nomiga ko`ra farqlashni o`rgatish.

Yil fasllarining xarakterli xususiyatlari bilan tanishtirish.

Tabiat burchagi – tabiat burchagidagi o’simliklar, jonivorlar, ularning yashash sharoitlari bilan tanishtirish; suvli akvariumda baliq yashaydi. Qafasda qushcha yashaydi. Jonivorlar tanasining asosiy qismlarini farqlashni o’rgatish.

Tabiatdagi mehnat – tabiatdagi mehnatda; o’simliklarning yirik barglarini artish, baliq, qush, jonivorlarga ozuqa berish yirik urug’li gul ekinlarini, piyoz, sabzovotlarni ekishda qatnashish, ekilgan gullarga suv quyish ishtiyoqini tarbiyalash.

O’simliklar dunyosi – sabzi, bodring, pamidor, piyoz, olma, apelsin, limon, olxo’ri, nokning nomi, ta’mi, rangi, katta-kichikligi va shakliga ko’ra farqlashni, ularning harakterli belgilarini aytishni o’rgatish.

Hayvonot dunyosi – o’quvchilarning xonaki va yavvoyi hayvonlar va ularning bolalari tabiat burchagidagi yashovchilar haqida bilimlarini kengaytirish. Jonivorlar tanasining asosiy qismlarini ajratish va ularni nomini aytish, ularga xos xususiyatlar, nima yeydi, qanday yeydi, qanday ovoz chiqaradi o’quvchilarga ajratib olishni o’rgatish.

O’quvchilar jonivorlarning katta, bolasining esa kichik bo’lishini bilishlari lozim.

Yil oxirida o’quvchilar ikkita har xil gullovchi o’simlik, daraxt, gulzordagi o’tsimon o’simliklar nomi, xona o’simliklarining nomini, akvariumdagi ikki-uch baliqlarni, ikki-uch qushlarning nomini, o’simlik va jonivorlarning tashqi ko’rinishidagi farqlovchi belgilarni bilishlari kerak.

**IKKINCHI SINF**



O'quvchilarning o'simlik va hayvonot olami, tabitdagi mavsumiy holatlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishni tashkil ettirish. Atrof tabiatga muhabbat, uning go'zalligidan zavqlanish o'simlik va jonivorlarga extiyotkorona munosabat hissi, buta va gullarni bosmay aylanib o'tish, ularni parvarish qilish va ulardan zavq olishni tarbiyalash.

Tabiatdagi mehnat – tabiat burchagini mustaqil yig'ishtirish va u yerdagi hayvonlarni parvarish qilish, o'simliklarni sug'orish, donxo'rak, suvdon, tagliklarini, sabzovotlarni yuvish, suvdonlarga suv quyish, tayyorlangan ozuqani donxo'raklarga solish. Baliqlar va parrandalarga ozuqa berish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quvchilarni ildiz mevalar, piyoz, petrushka, qish paytida tabiat burchagida qushlar uchun arpa, gullovchi o'simliklarning yirik urug'larini ekishga jalb etish. Ekinzor va gulzordagi ishlarga qatnashish lozim bo'lganda qum solish, tuproqni yumshatish, urug' ekish, ko'chat o'tkazish.

Mehnat qurollorini tartibga keltirib joy joyiga qo'yishni o'rgatish.

Jonli tabiat

Birinchi chorak. O'simliklar dunyosi sabzavot va mevalar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishni davon ettirish.

O'quvchilar besh-olti xil sabzavot ni va uch-to'rt xil meva rezavor ekinlarning nomini, rangi, shakli, ta'mi, ovqatga ishlatilishining o'ziga xos belgilarini bilishlari, sabzovotlar polizda, mevalar bog'da o'stirilishini bilishlari kerak. Sabzavot va

mevalar yetishtirishda kattalarning mehnati haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

#### Hayvonot dunyosi

Qish, qish davrida olmaxon, quyon va tipratikon kabi hayvonlar hayoti va tabiiy shariotlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Ikkinchi chorak. O'simliklar dunyosi –urug'don o'simliklar o'stirish, o'simliklikning ayrim shartlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish,

#### Hayvonot dunyosi

Tanish uy hayvonlari va ularning bolalari haqidagi bilimlarni kengaytirish. O'quvchilar ularning tana qismlarining yurish, turish xususiyatlarini va to'g'ri ta'rif berishni bilishlari kerak; nima bilan oziqlanishini, qanday foyda keltirishini, odamlar ular haqida qanday g'amxo'rlik qilishlarini bilishlari kerak.

Yangi uy hayvonlari ot, qo'y bilan ularning hayoti va xo'jaliklarda foydalanish bilan tanishtirish.

Uchinchi chorak. O'simliklar dunyosi o'simliklar tuzilishi haqidagi tasavvurlarni aniqlash va mustahkamlash. Daraxtlarda bitta tana, yo'g'on va ingichka shakllari, yaproqlari borligini o'rganish.

Butalar bir necha ingichka tanaga, shoxchalarga ega, ular daraxtlardan pastligini o'rgatish.

O'tsimon o'simliklardan poya, barg. Gullar borligini, o'simliklar ildizlari bilan o'zlarini yerda tutib turishlari, yerdan suv hamda ozuqa moddalarini olishlarini o'rgatish.

#### HAYVONOT DUNYOSI

Yavvoyi hayvonlar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish. Ular bilan bahor, yozgi mavsumdagi tabiiy sharoitdagi hayoti bilan tanishtirish; tashqi qiyofasi xatti-harakatiga ko'ra yosh hayvonlarning kattalardan farq qilishini o'rgatish.

To'rtinchi chorak. O'simliklar duynosi – yaqin atrofdagi o'simliklari quyidagi belgilariga qarab tanish : daraxtlarni , butalarni - barglarga , po'stlog'iga , o'tsimon o'simliklarni - rangiga va gulning shakliga qarab tanish. Yumshoq mevalar, sabzavotlar bilan, o'simliklar o'sadigan joylar bilan tanishtirish. Tanish o'simliklar nomlarini eslab qolishga o'rgatish.

Maktabda sabzavotlar o'stirilishi haqidagi tasavvurlarni anglash.

### Hayvonot dunyosi.

Tanish uy hayvonlarining hayoti , yoz vaqtida odamlarning ularni parvarish qilishdagi mehnatlari haqidagi tasavvurlarni aniqlash. Uy atrofidagi hayvonlarni, uchastkaga keladigan qushlarni , kapalaklarni, qo'ng'izlarni, ninachilarni bir biridan farqlashni o'rgatish.

### Uchinchi sinf.

Tabiat bilan tanishtirish .

Yaqin atrofdagi o'simliklar , uy va yovvoyi hayvonlar, tirik jonivorlarning hayot sharoitlari , tabiatdagi fasl , hodisalar

haqidagi bolalarda mavjud bo'lgan tasavvurlarni aniqlash, tartibga keltirish va kengaytirish.

O'quvchilar maktab maydonchasida va uning tashqarisida mahalliy o'simliklar, poliz sabzavotlarini yig'ish haqidagi bilimlarni kengaytirish.

O'quvchilar o'rmonda, o'tloqda, bog'da o'sadigan oiti, yetti hil sermaysa gullaydigan o'simliklarning, boshqali o'simliklarning ikki turini, o'rmon mevalarining ikki, uch xilini bilishlari ularning rangi va yaproqlariga qarab farqlashlari kerak, mahalliy hayvonlardan to'rt, beshtasini uchib ketadigan qushlardan uch, to'rt xilini taniy olishlari, kapalaklar, qo'ng'izlardan ikki, uch xilini farqlay olishlari ninachilarni chumolilarni, chivinlarni asalarilarni, qurbaqalarni, kaltakesaklarni taniy bilishlarini ularni turmush tarzlarini, siljish usullarini kuzatish. Tabiatning fasliy o'zgarishlarini, dala, bog' plizda kishilarning mehnat faoliyatini qanday borishini farqlashga o'rgatish. Kuzda kunlar qisqaroq, tunlar uzunroq bo'ladi, sovuq tusha boshlaydi, tez- tez yomg'ir yog'ib turadi, kuchli shamol esadi, yaproqlar asta sekin sarg'ayib to'kila boshlaydi. Hashoratlar va boshqa jonivorlar g'oyib bo'ladi. Qushlar uchib ketishadi, qishlaydiganlari odamlarning uy joylariga yaqinlashadilar, dalalarda, bog'larda hosil yig'ib olinadi. Qishga sabzavot va ho'l mevalar tayyorlash davom etadi.

Qishda eng qisqa kunlar va uzun tunlar bo'ladi, sovuq, ayoz, bo'ladi, qor yog'adi, hovuzlar muz bilan, yer esa

qor bilan qoplanadi. Daraxtlar va butalar yalang`och bo`ladi, barglar o`smaydi . Hayvonlab qishlab qoluvchi qushlar o`simliklarning yerga to`kilgan urug`lari bilan va boshqa don- dun bilan oziqlanadilar. Odamlar ularni boqadilar.

Bahorda kun uzayadi , tun qisqaradi, kunlar iliy boshlaydi, qorlar eruydi, ariqlardan suv oqadi , ona zamin uyqudan ko`taradi. O`simliklar o`sishi uchun yetarli sharoitda paydo bo`ladi.

Kurtaklar yetiladi , barglar chiqa boshlaydi , o`tlar, gullar avval quyoshli joylarda keyin esa soya - salqin joylarda o`sib chiqadi. Uchib ketgan qushlar keladi, qurt- qumusqalar va boshqa jonivorlar paydo bo`la boshlaydi.

Qushlar in quradilar , tuxum qo`yib bola ochadilar

Odamlar yer haydaydilar , don, paxta sabzavot ekinlarini ekadilar.

yoza eng uzun kunlar va eng qisqa tunlar bo`lib , havo iliydi, isiydi. o`simliklar hosil tugadi , hayvonlarni tabiiy sharoitda shaqlaydilar, odamlar pichan o`radilar, ekinlarni parvarish qilishadi , sabzavot va mevalarni yig`ishadi.

Tabiat haqidagi tushunchalarni shakillantirish.

Jonsiz tabiat.

O`quvchilarni predmetlar harakatlari bilan tanishtirish , ularning yo`llari va tezliklarini qiyoslashga o`rgatish : bitta o`yinchoq mashina o`z garajidan uzoqroqqa chiqib ketdi, boshqasi yaqinroq keldi, bir o`yinchoq boshqasiga nisbatan tezroq harakat qilmoqda.

Moddalarning qattiq holatidan sovuq holatga aylanishi va suyuq holatdan qattiq holatga aylanishi haqida tushuncha berish.

suyuqlikning bug`g`a va aksincha , bug`ning suyuqlikka aylanishi hodisalari bilan tanishtirish. Qattiq moddalarni suyuqlikka va suyuqlikni qattiq moddaga aylanishi haqida tasavvurni hosil qilish.

Qor yog`ishi , qor bo`roni, muz, momoqaldiroq, do`l yog`ishi tuman tushishi , qirov tushishi va shu kabi tabiat hodisalarini o`quvchilarni ogoh etish .

#### Jonli tabiat.

Birinchi chorak. O`simliklar dunyosi. Mahalliy o`simliklar haqida o`quvchilar tasavurini mustahkamlash. O`quvchilar daraxtlarning besh turini , butalarning to`rt turini nomini aytishlari , farqlashlari sabzavotlarning olti , sakkiz xilini,, mevali daraxtlarning to`rt , besh xilini nomlarini, ranglarini, shakli, mazasi ovqatda qo`llanish usullarining o`ziga hos hususiyatlari va belgilarini bilishlari kerak

#### Hayvonot dunyosi.

Tulki , bo`ri, ayiq, kabi yovvoyi hayvonlar hayoti bilan tanishtirish. Hayvonlarning tashqi qiyofasi, yashash tarzi hususiyatlarni ajrata bilish va tariflash ko`nikmasini shakillantirish , ular qayerda yashaydi , kuzda , qishda nima bilan ovqatlanadi, qishga qanday tayorgarlik ko`radi. O`quvchilarni hayvonlar ko`rinishi bilan , ularning hulqidagi

turli xillik va umumiylikning ajrata bilishga , bir- biriga o`xshashligiga qarab xulosa chiqarishga o`rgatish.

### Fasllar.

Kuzgi tabiat o`zgarishlari izchilligi haqidagi tasavurlarini sistemaga solish. Sovuqni kuchayib borishi bilan o`simliklarholati , hashoratlarning yo`qolib qushlarning uchib ketishi , hayvonlarning qishga tayorgarligi o`rtasidagi bog`lanish tushunchalarini tashkil qilish.

Ikkinchi chorak . O`simliklar dunyosi. O`simliklar tuzilishi , ularning ayrim qismlari , bajargan vazifalari haqidagi vazifalari haqidagi tasavurlarni aniqlash va kengaytirish , ildizlar suvni ozuqa moddalarni shimib oladi , bular poyalar orqali tana shoxlat orqali yaproqlarga , gullar hosiga uzatiladi, yaproqlar nurni yoqtiradilar.

### Hayvonot dunyosi.

Uy hayvonlarining asosiy turlari hayotining xususiyatlari va shart sharoitlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash va sistemalashtirish. Quyidagi belgilar asosida umumlashtirilgan tasavurlarni tashkil qilish :

1. Odam yonida yashaydigan , undan qo`rqmaydigan hayvonlar.
2. Foyda keltiradigan hayvonlar.

3. inson ularning hayot kechirishlari uchun lozim bo'lgan sharoitlarni
4. yaratish.

### Fasllar.

Tabiatdagi ichki hodisalar haqidagi tasavurlarni sistemalashtirish. Havo harorati suvning , tuproqning , o'simliklarning holati hayvonlar turmush tarzi bog'liqligini belgilash.

Uchinchi chorak. O'simliklar dunyosi . O'simliklarning ko'paytirishning usullaridan biri - qalamcha qilish bilan tanishtirish.

Erta gullaydigan o'tsimon o'simliklarni tanlay olishga, umumlashtirilgan nomlardan foydalanishga, yaproqli daraxtlar va ninabargli daraxtlarni farqini o'rgatish.

### Hayvonot dunyosi.

Suvda suzuvchi uy hayvonlari bilan, ularning tuzilishi o'zini tutishi , suzishga moslashganligi xususiyati bilan , ularning foydaliligi , odamlar ularni parvarish qilishlari bilan tanishtirish.

Yovvoyi hayvonlarning bahorgi yozgi davrlaridagi hayotlari : ularni yashash uchun joy qurishi , bolalashi ovqatlanishi, yurishi haqida tasavvur hosil qilish.



## Fasllar.

Bahorda tabiatdagi o`zgarishlar haqidagi tasavvurlarni sistemalashtirish . Issiqlikning ortib borishi bilan qor , muzlarning erib borishi o`rtasidagi , tuproqning harorati va uyqudagi yoki dam olishdagi o`simliklar , hayvonlarning uyg`onishi , qushlarning uchib kela boshlashi o`rtasidagi bog`lanishlarni belgilash.

To`rtinchi chorak.

O`simliklar dunyosi. Urug`lardan o`simliklar o`stirish , ularni parvarishlashning asosiy usullari borasidagi asosiy tasavvurlarni shakillantirish.

Hayvonot dunyosi.

Hashorotlarning , qurbaqalar, kaltakesaklarning , tabiiy sharoitlardagi hayoti to`g`risidagi tasavvurlarni shakillantirish.

## Fasllar.

Tabiatdagi yozgi hodisalar haqidagi issiqlikning yoki namning ko`pligi bilan o`simliklarning birdaniga avj olib o`sishi, barcha hayvonlarning faol hayot boshlashi o`rtasidagi aloqadorlik haqidagi tasavvurlarni sistemalashtirish.

Yil oxirida uchinchi sinf o`quvchilari quyidagi tasavvurlarga ega bo`lishlari kerak.

Tabiatda fasl o`zgarishlari : suvning xususiyatlari va o`simliklarning o`sish holati va rivojlanishi uchun lozim bo`lgan zarur sharoitlar, sabzavot va mevalarni parvarish qilishni bilish .

To`rtinchi sinf .

Jonli va jonsiz tabiat haqida o`quvchilarning aniq tasavvurlarini kengaytirish va chuqurlashtirish. Ularni hayvonlar va o`simliklar dunyosi bilan tanishtirish. Tabiat hodisalari fasllarga qarab o`zgarib borishini yil davomida kuzatish , tabiat taqvimida tasvirlab berish.

Maktab maydonchasida va uning tashqarisida. Yaqin atrofdagi o`simliklar haqida aniq bilimlarni to`plab borish . Yaproqlariga , gullariga, mevalariga, qarab daraxtlarning olti turini, bog`da gullaydigan o`simliklarning to`rt, besh turini , butalar, o`tlarning to`rt , besh turini nomlarini bilish.

Yaproqlari va gullariga qarab o`simliklarning turini , boshqalarning past- balandligi va shakliga qarab , boshqaning o`simliklarning ikki, uch turini farqlay olish. Sabzavot va mevalardan ovqatlarda foydalanishning turli usullari , o`simliklar o`sadigan joy haqida o`quvchilar ta`savvurini mustahkamlash.

Yaqin atrofdagi hayvonlarni taniy olish. Ularning nomlarini bilish, rangiga , shakliga, katta-kichikligiga chiqaradigan ovoziga , harakatiga qarab fariqlash.

Jonsiz tabiat hodisalari bilan tanishtirish.

O`quvchilarning eng oddiy fizik hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni havo va uning oddiy xususiyatlari va quyosh nurining xususiyatlari bilan tanishtirish .

Kuzda:

O`quvchilarni kuzning belgilari bilan tanishtirish , kun qisqaroq , havo sovuqroq bo`ladi , bulut ko`payadi, tez-tez yomg`ir yog`adi, sovuq shamol esadi, daraxtlar va butalarning yaproqlari sarg`ayadi

, qizaradi va asta sekin to`kiladi , o`tlar sarg`ayadi va so`ladi, ko`chuvchi qushlar iliq o`lkalarga uchub ketadilar, hashoratlar yashirinadi.

#### Qishda:

O`quvchilarni qish belgilari bilan tanishtirish: kun kuzgiga qaramasdan yanada qisqaroq bo`ladi, yer qor bilan, hovuzlar esa muz bilan qoplanadi, tez-tez sovuq bo`lib turadi, daraxtlar va butalar yaproqsiz, hashoratlar yo`q, qushlar kam.

#### Bahorda:

Bahorda tabiat o`zgarishini kuzatib borishi, kun uzayadi, iliydi, qor va daryolardagi muzlar eriydi, daraxtlardagi kurtaklar to`lishadi, yaproqlar va gullar paydo bo`ladi. Qushlar uchub keladi.

To`rtinchi sinf o`quvchilarining tevarak atrofdagi tabiat bilan tanishtirishda ularga tabiat hodisalari, jonli va jonsiz tabiatni bir-biri bilan bog`ligi, jonli maxluqlarining yashash sharoitlari haqidagi boshlang`ich bilimlarini davom ettirish kerak.

#### Jonsiz tabiat.

O`quvchilarni jonsiz tabiat hodisalari haqida: havoning, magnitning elektorning xususiyatlari bilan tanishtirib bilim berib borish kerak.

#### Jonli tabiat.

Birinchi chorak. O`simliklar dunyosi. O`quvchilarni yangi xonki o`simliklar bilan tanishtirish. Ularning xususiyatlari, shakli hajmi poyasining, bariglarining , gulining rangini ajratish va harakterlashga o`rgatish.

## Hayvonat dunyosi.

O`quvchilarni o`zlariga tanish bo`lgan yovvoyi va tabiat burchagida yashovchi hayvonlarning moslashuvchanlik xususiyatlari bilan tanishtirish.

### Mavsumiy hodisalar

Jonsiz tabiatdagi osimlik va hayvonat dunyosidagi o`zgarishlarni aks ettiruvchi belgilar jamlanmasi asosida kuz haqida umumlashgan tasavvurlarini shakllantirish.

Ikkinchi chorak. O`simliklar dunyosi maydonchadagi hamma o`simliklarning issiqlikka, suvga bo`lgan ehtiyojlari haqidagi o`quvchilar tasavvurini aniqlash.

### HAYVONOT DUNYOSI

O`zbekistonga xos bolmagan uy hayvonlari bilan tanishtirish. Ularning yashash joyi, tashqi qiyofasi, fe'l-atvori, hayot tarzi va ulardan keladigan foyda haqida tasavvurni shakllantirish. Shimol bug`usi o`zining belgilari bilan uy hayvonlari toifasiga kirishini o`quvchilarga aniqlashga o`rgatish.

Uchinchi chorak. O`simliklar dunyosi. O`simliklarni qalamchasidan, piyozidan, butasidan ajratib ekishni va ko`paytirishni o`quvchilarga o`rgatib borish. O`simliklarning parvarishi uchun zarur shart-shaaroitlar borasidagi bilimlarni kengaytirish.

### HAYVONOT DUNYOSI

Yovvoyi hayvonlarning bahor davridagi hayotidagi o`zgarishlari bilan tanishtirish.

## Mavsumiy hodisalar

Jonsiz tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosi belgilari asosida yoz fasli haqida umumlashgan tasavvurlarni shakllantirish.

Yil oxirida to'rtinchi sinf o'quvchilari bilishi kerak:

- yil fasllarining xarakterli xususiyatlari haqida;
- tabiatdagi, o'simliklar, hayvonlar va odamlar hayotidagi mavsumiy ozgarishlar haqida;
- paxtakorlar mehnati haqida;
- bog'bonlar va dexqonlar mehnati haqida;
- o'simliklar va hayvonlarni muhofaza qilish haqida;
- yaqin atrofdagi daraxtlar, butalar, o'simliklarning nomlarini bilishlari, bir necha hayvonlarning tabiatda, rasmda tanib olish va ularning nomlarini ayta bilishlari;
- mustaqil ravishda maydonchada va tabiat burchagida o'simliklarni parvarish qilishni bilishlari lozim;
- tabiatda o'zini qanday tutishga doir qoidalarni bajara olishlari lozim.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga masuliyatli munosabat asoslarini shakllantirish mazmunini, shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Odamlar ming yillar davomida tabiat bilan kurashib, uni zabt qildi, qayta o'zlashtirdi. Endi esa tabiat aziyat chekmoqda. Aslida tabiatga odamlarning himoyasi kerak emas. Aksincha, nafas olish uchun musaffo havo, ichish uchun toza suv, hayot kechirish uchun butun tabiat odamlarga kerak. Ona tabiat hamisha odamdan ustun bo'lgan va shunday bo'lib qolaveradi; odam – tabiatning farzandi, uning hayotidagi bir zarra va lahza, xolos. Biroq odamlarning tabiatga mas'uliyatsiz munosabati va texnik aralashuvi uni tilkapora qildi. Uni sog'lomlashtirish – bizdan atrof muhit haqidagi bilim, tafakkur va unga nisbatan to'g'ri, mas'uliyatli munosabatni talab qilmoqda. Bu fazilatlar esa har bir shaxsda boshlang'ich sinfdan boshlab shakllantirishi lozim.

2. “Atrof-muhitga munosabat” tushunchasi falsafiy, psixologik-pedagogik tashkil etildi, “mas'uliyat” tushunchasining ekologik madaniyat, eng tafakkur, duynoqarash e'tiqod, bilim va faoliyat bilan bog'lanishi aniqlandi, ekologik ta'lim va tarbiyada “atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish” tushunchasining imkoniyatlari talqin qilindi.

O'quvchi shaxsida mas'ullik kurtaklari hosil bo'lmasa qat'iyyatsizlik, jur'atsizlik kutiladi. Shunga ko'ra mas'uliyatli munosabatni amalda namoyon etish uchun o'quvchi, bir tamondan, qaysi xatti-harakatlar atrof-muhitga nisbatan nojo'ya sanalishi, ona

tabiatga zarar yetkazishini bilish, ikkinchi tomondan, o'zidagi qat'iyatlik, jur'atsizlikni yengib o'tishi darkor.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan qismida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat elementlarini shakllanib kelayotgan bo'lsa-da, ular barqaror emas, ya'ni ayrim tengurlari tomonidan sodir etilayotgan nojo'ya xatti-harakatlarini qat'iyat bilan qaytara olmaydi, aksariyat kichkintoylarda esa bunday munosabat hali tarkib topmagan.
4. "boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat ta'lim standartlari", "uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi va "tabiat bilan tanishish" dasturi va ularga doir metodik tavsiyalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat tarbiyasiga da'vat etilgan bilim, ko'nikma va malakalar yetarlicha o'z ifodasini topgan va o'qituvchilarning ekopedagogik mahorati zamonaviy talablar darajasida emas.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari: tasavvurlarni nisbatan yuqori darajasi, atrof-muhit haqidagi axborotlarga qiziquvchanlik bilan qarash, atrof-muhitdagi obyektlari va hodisalarga hissiy javob berish qobiliyati mavjud.
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning samarali vositalari, shakl va metodlari ishlab chiqildi, mashg'ulotlar bilan o'quvchilarning atrof-muhitni bilishga oid ehtiyojlariga asoslanib qo'shimcha

tashkil qilinadigan mashg'ulotlar birligi mazkur fazilatni shakllantirishning muhim vositalardan biri bo'lishi mumkun.

7. O'quvchilarni ekologik to'g'ri yo'l tutishga o'rgatadigan qulay didaktik o'yinlar, voqeaband rolli o'yinlar, sayr-sayohatlar va ehtiyojga asoslangan mashg'ulotlarning qat'iyatsizlik, jur'atsizlik kabi sifatleri bartaraf etishda tutgan o'rni katta.
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlarning tashkiliy shakllari va vositalari majmuining uyg'unligi mashg'ulotlarning maqsadi, mazmunining xususiyatlari va tanlangan metodlarning o'zaro hamkorligiga bog'liq.
9. Tajriba – sinov jarayonida boshlagich sinf o'quvchilarini atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarga qiziqtirish asosida ularda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish mumkinligi isbotlandi.

Umumiy o'rta taim maktabi bilan oila hamkorligini yo'lga qo'yishoeqali o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish bo'yicha ota-onalar uchun pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirish yo'llari hamda oila, tevarak-atrofdagi sog'lom ekologik muhitni yaratishga doir tafsiyalar ishlab chiqildi:

- dasturlar va talablarda bergilangan barcha mavzularni mazmunan o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bilan bog'lash imkoniyatlari doirasida boyitish lozim;



- umumiy o'рта ta'lim maktablari o'qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari rejasiga “ Boshlang'ich sinf o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish metodikasi” mavzusini kiritish va uning o'quv metodik majmuasini yaratish maqsadga muvofiq;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarda atrof-muhitga obyektlar va hodisalar bilan mashg'ulotlardan tashg'ari vaqtlarda yakka tartibda va guruh tarzida tanishtirish va amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar  
ro'yixati.

1. Karimov . I.A.” O`zbekiston kelajak sari” – Toshkent - “ O`zbekiston “ , 1999 yil,- 505 b.
2. Karimov. I.A. “ Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyoti poydevori”. Toshkent- “ sharq “ , 1997 yil , -53 b.

3. Karimov I.A. “ Yuksak malakaviy mutaxassislar taraqqiyot omili “
4. O`zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
5. Avazov. SH. “ Ekologik ta`lim - tarbiyaning ba`zi masalalari “- Toshkent - “ O`zbekiston “ , 1989 yil.
6. Avazov. SH. “ Maktabda ekologik tarbiya “ – Toshkent – “ O`qituvchi” , 1992 yil , - 62 b.
7. Alibekov. A. A, Nishonov. S.A. “ Fan texnika taraqqiyoti va inson “ – Toshkent - “ O`zbekiston “ 1984 yil- 169 b.
8. Dejnikova. N. S, Ivanova . L. YU, Qlemyashova . YE. M, Snitqo. I.B, Svetkova . I B. ” Vospitaniya ekologicheskoy kul`turi u detey i podroskov ” , Uchobnoye posobiya , Maskva Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 2000 g.
9. Yormatova. D. ” Ekologiya ” - Toshkent - ” Fan va texnologiya ”, 2011 yil , - 204 b.
10. Ziyomammedov. V. ” Eqologiya va ma`naviyat ” - Toshkent – ” Mehnat ” , 1997 yil.
11. Ismoilov . A, Ahadov. R ” Ekologik ta`lim tarbiya ”- Toshkent - ” O`qituvchi ”1997 yil, - 119 b.
12. Mahmudov . R. YU, ” Ekologiyadan ma`lumotnoma ” - TOSHKENT – ” Fan” 1997 yil.
13. Mahmudov. YU. G`, ” Ekologiyadan testlar” – Toshkent – ”Fan” , 1998 yil.
14. Nishinboyeva.M. ” Biyologiya darslarida ekologik tarbiya ” - Toshkent –” O`qituvchi ” 1992 yil.- 120 b.

15. Otaboyev . SH. T. Nabiyev. M. N. “ Inson va biosfera “ - Toshkent.- “O`qituvchi” - 1995 yil , 312 b.
16. Ojegov. YU. P, Nikanorova. S. B. ” Ekologichestki impuls : Problemiy formirovaniya ekologicheskoy kultur molodyoji ” - Moskva – ” Molodayo gvardiya ” 1990g.- 271 s.
17. To`xtayev A.S, ” Ekologiya ”- Toshkent – ” O`qituvchi ” , 1998 yil , 192 b .
18. Sivilizatsiya ” Ekologiya . Inson ” Toshkent – 1999 yil- 173 b .
19. Sibirkina .A.P.” Ekologichestkoe obrazavaniya i vaspitaniya v interesa ustaychevego razvitiya ” g. Semipalatinsq .S.T.P.I . 2007 – 76S.
20. Xalilov . R. Ikromov .A. ” Ekologiya ”- Toshkent – ” Mehnat” , 2001 yil, - 208 b.
21. h.t.t.p: // [WWW.yspu.yar.ru](http://WWW.yspu.yar.ru).

3- sinf o`quvchilari uchun Tabiatshunoslik fanidan ” Ekologiya  
” mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi.

Darsningmavzusi : “ Ekologiya nima “

Darsning maqsadi :

A) Ta'limiy: Ekologiya nima va u nimalardan tashkil topganligi haqida yangi bilimlarga ega bo'lish.

B) Tarbiyaviy: Jonli va jonsiz tabiatning o'zaro bog'liqligi.

S) Rivojlantiruvchi : Ekologiyani qanday asrash kerak.

Dars turi : aralashgan.

Dars usuli : tushuntirish , suhbat , ko'rgazmalik va bahs.

Dars jihozi : tabiat tasvirlariga turli xil rasmlar va plakatlar.

### Darsning borishi

#### I. Tashkiliy qism :

. salomlashish,

. davomatni aniqlash,

. ob- havo , fasl haqida suhbat o'tkazish.

#### II. O'tgan darsni takrorlash.

- o'tgan darsda biz sizlar bilan sog'lig'imizni saqlash haqida suhbatlashgan edik. Qani kim aytadi , shamollatilmagan honada nafas olish qiyinmi

- ....

- Chekish spirtli ichimliklar ichishning qanday zararli tomonlari bor, gapirib bering .

- .....

- Barakalla . Hech qachon chekmang . Spirtli ichimliklarni tatib ko'rmang.

#### III . Yangi mavzu bayoni .

- Qani aytingchi , odam tirik tabiatni bir bo'lagi deganda nimani tushunasiz.

- ....

- Odam hayvondan nimasi bilan farq qiladi.

- ....

- Nima uchun tabiatni muhofaza qilishimiz bilan biz o'z sog'lig'imizni asraymiz.

-.....

- Barakalla , fikringiz juda to'g'ri .

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50- moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur ekanligi uqtiriladi.

Kitobdan foydalanish.

- Ekologiya so'zi radio , tele- radio dasturlarida , gazeta va jurnal sahifalarida tez tez tilga olindi.
- Ekologiya so'zi yunoncha “ ekas “ – uy va “ logos “ - fan ma'nosini bildiradi. Demak Ekologiya barcha tirik mavjudodlarning umumiy uyi haqidagi , ya'ni tabiat haqidagi fandır. Ekologiya, masalan, o'simliklar hayvonlar va odam bilan qanday bog'langanini o'rganadi.

Tirik mavjudodni o'rab olgan barcha narsalarni ekolog olimlar atrof muhit deb atashgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54- moddasida mol- mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi , fuqarolar , yuridik shaxslar va davlat huquqlarini hamda qonun bilan himoyalangan manfaatlarni buzmasligi belgilangan.

Jonli tabiat bilan jonsiz tabiatni o'zaro bog'liqligi ( o'quvchilar do'skada bajaradilar )

- Kitobingizdagi 68- rasmda tasvirlangan manzaralarni diqqat bilan ko`rib chiqing. Jonli va jonsiz tabiat o`rtasidagi qanday bog`lanishni tushundingiz. Nima uchun kungaboqar quyosh harakatiga mos ravishta o`z holatini o`zgartirishni o`ylab ko`ring . So`zlab bering.

-....

- 69- rasmda tasvirlangan manzarani diqqat bilan ko`zdan kechiring.Nima ko`ryapsiz.

-....

- To`g`ri , hayvonlar o`zaro qanday bog`langan.

Ekologik halokat.

- Olimlar tabiatni kuzatib , okeanlar, dengizlar, ko`llar va suv havzalarini eng yuza qatlamida xilma- xil hayot qaynashini aniqlashgan. Bu yerda hamma narsa bor . Bakteriyalar , baliqlar, lechinkalar , va boshqalar . Ularning hammasiga joy yetarli . Hayotimizga nima xavf soladi . Neft. Neft hozirgi zamon sanoatining ma`lum hom ashyosi. Neft suvdan yengil bo`lishini bilasiz . Shuning uchun neft dengizga tushganda , suv yuzaga yupqa parda shaklida yoyiladi . Masalan, kemalar halokati tufayli dengizga to`kilgan neft xavf tug`diradi.

Bunda hech qanday bakteriya ham yordam berolmaydi. Suvda suzib yuruvchi qushlar ko`plab nobud bo`ladi chunki neft qushlar patidagi moyini eritib yuboradi va bevosita ular terisiga salbiy ta`sir qiladi.

Darsning yakuni.

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti “ Boshlang`ich ta`lim sport tarbiyaviy ishi “ ta`lim yo`nalishi bitkazuvchisi Yusupova Adibaning “ Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning pedagogik asoslari “ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

### Taqriz

O`zbekiston Respublikasida tabiat va atrof muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Bu yo`lda amalga oshiruvchi ijtimoiy ekologik harakat mazmuni “ O`zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi “ da o`z ifodasini topgan.



Tabiat va atrof muhitni muhofaza qilish , shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to`xtalib O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: “ Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy mintaqaviy doirada chiqib , butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Uni hal etish barcha halqlarning manfaatlariga mos bo`lib, sivilizatsiyaning hozirgi kun va kelajagi ko`p jihatdan anashu muammoni hal qilishga bog`liqdir”

Yusupova Adibaning “ Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning pedagogik asoslari “ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi boshlang`ich sinf o`quvchilarini barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qiluvchi manba sifatida ahamiyatlidir.

Shu nuqtai nazardan boshlang`ich sinf o`quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning o`ziga xos hususiyatlari mazmuni va ta`lim berish usullarini o`rganish va taxlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba bitiruv malakaviy ishida boshlang`ich sinf o`quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirish jarayonida amalga oshiriladigan qator vazifalarni belgilab, tadqiqot ishlarni olib borgan. Buning uchun tegishli adabiyotlarni , metodik tavsiyanomalarni , meyyoriy xujjatlarni tahlil qilgan va tegishli xulosalar chiqargan.

Taxlil natijalari boshlang`ich ta`lim muasasalarida sinovdan o`tkazgan . Ish tarqatma didaktik materiallar bilan boyitilgan.

Ish Oliy o`quv yurtlarida bitiruv – malakaviy ishlarni bajarish Nizomiga asosan yozilgan. Ishni tugallangan deb hisoblayman va bakalavr darajasini olish uchun himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar : p.f.n.SalayevaM.S

Urganch Davlat universiteti Pedagogika fakulteti “ Boshlang`ich ta`lim sport tarbiyaviy ishi” ta`lim yo`nalishi bitkazuvchisi Yusupova Adibaning “ Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning pedagogik asoslari “ mavzusidagi bitiruv - malakaviy ishiga

### TAQRIZ

O`quvchilarda tabiatga nisbatan to`g`ri munosabatni qaror toptirish , mehr – muhabbatni uyg`otish , atrof- muhit muhofazasiga

erishish ekologik muammolarni hal etish yo`lida muhim bosqich sanaladi .

Ekologik ta`lim o`quvchiga aniq maqsadga muvofiq , izchil , tizimli va uzluksiz ravshda nazariy ekologik bilimlarni berish yo`naltirilgan ta`limiy jarayondir.

Nazariy ekologik bilimlar hamda atrof muhit va tabiat muhofazasi yo`lida olib borilayotgan faoliyat bilan ekologik madaniyatni shakillantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof muhitning mavjud hoiati ularni muhifaza etish borasida tushunchalarni ongdagi ifodasi bo`lib , u murakkab ijtimoiy – psixologik hodisa sifatida namoyon bo`ladi.

Yusupova Adibaning “ Boshlang`ich sinf o`quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning pedagogik asoslari “ mavzusidagi bitiruv- malakaviy ishiga ta`limiy va tarbiyaviy ishlar jarayonida o`quvchilarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakillantirishning pedagogic asoslari mohiyati va o`quvchi shaxsini rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Talaba bitiruv malakaviy ishida mavzuga doir ilmiy - amaliy adabiyotlarni metodik qo`llanmalarni ta`limiy islozni amalga oshiruvch qonuniy va meyyoriy hujjatlar , bosjlang`ich ta`lim mazmunuga oid ko`rsatmalarni yahlil qilgan va tegishli hulosalar yasagan.

Shuningdek ishda didaktik tarqatma mayeriallardan o`rinli foydalangan . Ish ananaviy kirish , ikki bob , xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yihatidan iborat

Ish Oliy o`quv yurtlarida bitiruv malakaviy ishlarni bajarish nizomga rioya qilgan holda bajarilgan.

Ishni tugallangan hisoblayman va bakalavr darajasini olish uchun himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

HajiyevaM.M

Urganch shahar

25- son umumiy

o`rta ta`lim

maktabi

O`qituvchisi